

MAHALLIY HOKIMIYAT ORGANLARI TUZILMASI VA VAKOLATLAR TASNIFI

*Esonboyev Behro'z Zohid o'g'li
Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Siyosatshunoslik
Yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati va xalq deputatlari kengashining mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonun orqali viloyat, tuman va shahar hokimlarining vakolatlari va xalq deputatlari vakolatlari, ularning lavozimga qanday, kim tomonidan tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi bu maqolada yortib berilgan.

Kirish. Mahalliy davlat hokimiyati organlari joylardagi davlat boshqaruv organlari hisoblanadi. Ular mahallay ahamiyatga molik hamma masalalarni o'zlari hal qiladilar. Shuningdek, umumdavlat manfaatlarini shu hududda yashab turgan fuqarolarning manfaatlari bilan uyg'unlashtiradi, yagona davlat hokimiyati organlarining tarkibiy bo'g'ini sifatida yuqori davlat organlari qarorlarining amalga oshirilishini ta'minlaydi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, uzoq tarixiy tajribaga, milliy an'analarga tayangan holda o'z davlat idoralarini tubdan isloq qildi. Mahalliy hokimiyat tizimini shakllantirish sohasida bir qator qonun va rasmiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (1992-yil 8-dekabr), "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi qonun (1993-yil 2-sentabr), "Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlariga saylovlari to'g'risida"gi qonun (199-yil 5-may) kabilar muhim o'rinn egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Mahalliy davlat hokimiyati

organlari faoliyatining konstitutsiyaviy huquqiy asoslari o'z asosini topgan. Mazkur qonunlarda mahlliy davlatlar organlarining tizimi, mavqeyi, vazifalari, tuzilish tartibi konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab qo'yilgan.

Mavzuga oid ma'lumotlar.

Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi qonunda viloyat, tuman va shahar hokimlari vakolatlari, lavozimga tayinlanishi va ozod etilishi haqida aniq belgilab qo'yilgan. Bu qonunning 2-moddasida mahalliy vakillik va ijroiya hokimiyati boshlig'ini lavozimiga va lavozimidan ozod etish: Viloyat va Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlanadi hamda lavozimidan ozod etiladi. Viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tegishli xalq deputatlari Kengashlaridagi partiya guruhlarining har biri bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi. Tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiyl sonining ko'pchilik ovozini olgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodi tasdiqlangan hisoblanadi. Agar ovoz berish vaqtida viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlari tegishli xalq deputatlari Kengashi deputatlari umumiyl sonining ko'pchilik ovozini ololmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mazkur lavozimlarga nomzodlarni partiya guruhlari bilan qo'shimcha maslahatlashuvlar o'tkazganidan so'ng bir oy ichida yana ikki marta taqdim etish huquqiga ega. Tegishli xalq deputatlari Kengashi taqdim etilgan viloyat va Toshkent shahar hokimi nomzodlarini uch marta rad etgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti viloyat va Toshkent shahar hokimi vazifasini bajaruvchini tayinlash, tegishli xalq deputatlari Kengashini tarqatib yuborish huquqiga ega. Bunda xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlariga saylov tarqatib yuborish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch oy ichida o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlarining qaroriga muvofiq hokim nomzodi bo'yicha farmon qabul qiladi.

Tuman, shahar hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan

tasdiqlanadi. Tuman, shahar hokimlari viloyat, Toshkent shahar hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda tegishli xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Tumanga bo‘ysunuvchi shahar hokimi tuman hokimi tomonidan tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi hamda xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Viloyat hokimi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda shahar hokimini tuman (shahar tarkibiga kiruvchi tumanlar bundan mustasno) hokimiga bo‘ysundirish va yagona boshqaruva organlarini tuzish vakolatiga ega bo‘lib, bu xususdagi qaror keyinchalik xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Xalq deputatlari Kengashi va hokimlarning vakolat muddati — besh yil.

5-modda. Xalq deputatlari Kengashlari va hokimlarning O‘zbekiston Respublikasi boshqa ma’muriy-hududiy tuzilmalari davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan o‘zaro munosabatlari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi va viloyat, tuman, shahar hokimi berilgan vakolatlari doirasida umum manfaatni ifodalovchi tadbirlar o‘tkazish, qo‘sishma korxonalar, xo‘jalik tashkilotlari tuzish uchun, turli tarmoqlar va boshqaruva sohalarida faoliyatlarni uyg‘unlashtirish maqsadida Qoraqalpog‘iston Respublikasining, O‘zbekiston Respublikasi boshqa viloyatlari, shaharlari va tumanlarining davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan shartnomalar asosida o‘zaro munosabatlar o‘rnatishga haqlidirlar.

16-modda. Xalq deputatlari Kengashini saylash

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq viloyat, tuman, shahar aholisi tomonidan .saylanadigan xalq deputatlaridan iborat bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasining ayrim joyida joriy etilgan favqulodda holat amal qilishining butun davri mobaynida ushbu joyda joylashgan xalq deputatlari Kengashlariga saylov o‘tkazilmaydi

Xalq deputatlari va hokimning vakolatlari.

24-modda. Xalq deputatlari Kengashining vakolatlari

Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining asosiy vakolatlariga:

hokimning taqdimiga binoan, hududni rivojlantirishning istiqbolga mo‘ljallangan dasturlarini, tuman, shaharning bosh rejasi va uni qurish qoidalarini tasdiqlash;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarini, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlarini tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda qabul qilish;

viloyatlarning viloyat budgetlari, Toshkent shahrining shahar budgeti hamda tumanlar va shaharlar budgetlari daromadlarining prognozlarini ma’lumot uchun qabul qilish;

viloyatlarning viloyat budgetlariga va Toshkent shahrining shahar budgetiga, tumanlar va shaharlar budgetlariga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qarorlarni tasdiqlash;

tegishli budgetlardan moliyalashtiriladigan hududiy budget mablag‘larini taqsimlovchilarning budget mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar to‘g‘risidagi hisobotlarini eshitish;

viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarining, shuningdek tumanlar va shaharlar budgetlarining tegishli davrdagi ijrosi to‘g‘risidagi hisobotlarni tegishincha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko‘rib chiqish hamda tasdiqlash;

mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning stavkalarini qonunchilikda belgilangan miqdorlar doirasida belgilash;

hokimni va uning o‘rinbosarlarini lavozimga tasdiqlash, hokimni va uning o‘rinbosarlarini lavozimdan ozod etish, ularning faoliyatiga doir hisobotlarini, shuningdek hokimlarning viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini tinglash;

xalq deputatlari Kengashining Ish tartibini, xalq deputatlari Kengashi doimiy va boshqa komissiyalari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash, ularga o‘zgartishlar va qo‘sishchalar kiritish;

xalq deputatlari Kengashining doimiy va muvaqqat komissiyalarini, boshqa organlarini tuzish, saylash va tugatish, ularning tarkibini o‘zgartirish, ular ishiga doir hisobotlarni tinglash;

qonunchilikda belgilangan hollarda va tartibda xalq deputatlarining vakolatlarini e’tirof etish va muddatidan oldin to‘xtatish, ularni javobgarlikka tortish uchun rozilik berish;

tegishli prokurorlarning hisobotlarini eshitish;

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hududiy bo‘linmalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

tegishinchcha sog‘lijni saqlashni boshqarish hududiy organlari, tuman (shahar) tibbiyot birlashmalarini, tuman markaziy ko‘p tarmoqli poliklinikalari rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

hokimning va quyi Kengashning O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi mos kelmaydigan qarorlarini bekor qilish;

hokimning taqdimiga binoan hokimlik strukturasini, uning xodimlari shtatlari va ish haqi fondini tasdiqlash kiradi.

Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlari fuqarolarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashga, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir o‘z vakolatlariga berilgan masalalarni, tashkiliy masalalar va O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi muvofiq nazorat etishga doir boshqa masalalarni hal etadi.

25-modda. Hokimning vakolatlari

qonunlarning hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarining, yuqori turuvchi organlar va tegishli xalq deputatlari Kengashi qarorlarining ijrosini tashkil etadi;

jamoat tartibiga rioya etilishi va jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, ularning huquqlarini himoya qilish va salomatligini muhofaza etish bilan bog'liq chora-tadbirlar ko'radi, tabiiy ofatlar, epidemiyalar va boshqa favqulodda hollarda tegishli ishlarni tashkil etadi;

viloyatlarning viloyat budgetlaridan va Toshkent shahrining shahar budgetidan, tumanlar hamda shaharlar budgetlaridan hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilarga budget so'rovini tuzish uchun ajratiladigan budget mablag'larining cheklangan miqdorlarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

viloyat, tuman, shaharni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, viloyat va Toshkent shahar mahalliy budgetining, tuman va shahar budgetining tegishli loyihasini, shuningdek uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni xalq deputatlari Kengashiga taqdim etadi;

tegishli xalq deputatlari Kengashiga viloyat, tuman, shahar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim va dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlar taqdim etadi;

o'z o'rinnbosarlari va ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining rahbarlarini lavozimga tayinlash va lavozimdan ozod etish to'g'risidagi qarorlarni xalq deputatlari Kengashi tasdig'iga taqdim etadi;

hokimlik devoni bo'linmalari rahbarlarini lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;

rahbarlari tegishli xalq deputatlari Kengashlari tomonidan lavozimga tayinlanadigan va lavozimdan ozod etiladigan ijroiya hokimiyati struktura bo'linmalarining ishini nazorat qiladi;

xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan va chiqargan hujjatlarni bajarmaganliklari uchun mansabdor shaxslarni intizomiy javobgarlikka tortish to'g'risida qonunda belgilangan tartibda taqdimnomaga kiritadi;

davlat mukofotlari bilan taqdirlashga doir iltimosnomalarni qarab chiqadi va takliflar kiritadi;

respublika va xorijda viloyat, tuman hamda shaharning rasmiy vakili sifatida ish ko‘radi;

aholini qabul qilishni tashkil etadi, fuqarolarning shikoyatlari, arizalari va takliflarini qarab chiqadi.

Hokim rejalashtirish, budget, moliya, hisob-kitob, viloyat, tuman, shahar mulkini boshqarish, mulkchilikning turli shakliga mansub korxonalar, muassasalar va tashkilotlar bilan hamjihatlik qilish, qishloq xo‘jaligi, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish, tabiatni muhofaza qilish, qurilish, transport, yo‘l xo‘jaligi va aloqa, aholiga kommunal, savdo va ijtimoiy-madaniy xizmat ko‘rsatish, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, qonuniylik, huquq-tartibot va xavfsizlikni ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish sohasida qonunchilikda o‘z vakolatiga berilgan boshqa masalalarni ham hal etadi.

27-modda. Yuqori turuvchi hokimiyat organlari qarorlarining quyi organlar uchun majburiyligi

Yuqori turuvchi davlat hokimiysi organlari o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlar quyi organlarning ijrosi uchun majburiydir.

28-modda. Xalq deputatlari Kengashi va hokim qabul qilgan hamda chiqargan hujjatlar ustidan sudga shikoyat qilish va protest keltirish

Xalq deputatlari Kengashi va hokim tomonidan qabul qilingan hamda chiqarilgan hujjatlar ustidan fuqarolar, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tomonidan sud tartibida shikoyat qilinishi, shuningdek prokuror tomonidan protest keltirilishi mumkin.

29-modda. Hokimning prokuror protest bildirgan qarorlari qayta ko‘rib chiqilishi majburiyligi

Hokimning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlariga zid, prokuror protest bildirgan qarorlari shu hokimning o‘zi tomonidan yoki yuqori turuvchi hokim yoki O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi.

XULOSA.

Jahon amaliyoti ko'rsatadiki, har qanday davlatga markaziy va mahalliy hokimiyat o'rtaqidagi hayotiy muhim munosabatlarni tartibga soladigan, markaz va mintaqalarning manfaatlari optimal muvozanatini ta'minlaydigan mexanizm zarur bo'ladi.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy tuzumi tamoyillaridan biri hisoblangan qonun ustuvorligini ta'minlash bo'yicha bugungi kunda amalga oshirilayotgan ishlarning mavqeyi bir muncha yuqori. Markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtaqidagi funksiyalarning optimal bo'linishini ta'minlash, shuningdek turli darajalar o'rtaqidagi to'sqiniksiz mablag'lar ko'chishi va xizmatlar almashuvini ta'minlash fikrimizning umumiy mulohazalaridan biridir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda mahalliy boshqaruvning ikkita asosiy shaklini farqlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-112170>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Mahalliy_davlat_hokimiyati_organlari
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr
4. <https://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kursishi/item/13324-o-zbekiston-respublikasi-mahalliy-hokimiyat-organlari>